

QADIMGI MIF VA AFSONALAR

Abdulxakimova Gulsanam

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi

25.107- guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19949282>

Annotatsiya. Ushbu tezisda mif va afsonalar haqida umumiy tushuncha berilib, ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyati hamda badiiy xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu janrlar orqali qadimgi xalqlarning dunyoqarashi, e'tiqodlari va hayot tarzi aks etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mif, afsona, qadimgi adabiyot, og'zaki ijod, qahramon, ramziy obraz.

Kirish

Mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'grisidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Hali o'zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o'z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo'lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o'z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo'lib o'tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. Xalq prozasining badiiy shakl tiplaridan biri bo'lgan miflar – asotirlar|| nomi bilan ham yuritiladi. –Mif|| so'zi aslida grekcha –mythos – so'z, rivoyat|| so'zidan olingan. M.I. Steblin – Kamenskiy mif tabiatini izohlar ekan: –Mif – bu voqelik bo'lib, u qanchalik haqiqatga zid bo'lmasin, yaratilgan va yashab kelgan joyda ayni haqiqat deb qabul qilindi||,– deydi. Haqiqatan ham, ibtidoiy inson mifdagi voqelikni inkor etib bo'lmas haqiqat sifatida qabul qilgan.

Ularga nisbatan mana shu ishonch, ogizdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelishiga sabab bo'lgan. Afsona —xalq og'zaki ijodi (folklor) janri. U xayolot, uydirma va to'qimadan iborat bo'lsada, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hatto bo'lib o'tgan davri, makon ham ko'rsatiladi. Afsonalar og'izdan-og'izga, eldan-elga o'tib kelgan, ifoda usuli bayon tarzida. Afsonalar og'zaki hikoyat bo'lib, u xayoliy obraz yoki tasavvur asosiga quriladi, hikoya qiluvchilar va tinglovchilar tomonidan qachonlardir shunday bo'lgandek qabul qilinadi. Rivoyatdan farqli o'laroq Afsonalar zaminida albatta mo'jiza, sehr-jodu bo'ladi. Afsonalar olam (Yer, Quyosh va boshqa sayyoralar yuzaga kelishi) haqida, toponimik (Qof tog'i, daryo, dengiz, shahar, qal'a, qishloq, tepalik, Eram bog'i va hokazo), elatlarning kelib chiqishi (masalan, turkiy xalqlarning), hayvonot dunyosi (masalan, sher, ajdaho, anqo, semurg' va boshqalar)ga oid, tabiatdagi voqea, hodisalar (masalan, chaqmoq, zilzila, shamol va boshqalar) xususida, tarixiy shaxslar (mas, turkiylardagi Er To'nga, To'maris, Shiroq, anglosaklar qiroli Artur va boshqalar) to'grisida, diniy (mas, islomdagi Nuh payg'ambar xususidagi, Abu Muslim jangnomasi, Avestodagi Frangrasyan (Afrosiyob), xristianlikdagi Iso Masihning havoriylari bilan sayohatiga bog'liq voqea-hodisalar) va boshqa turli-tuman mavzularda bo'ladi.

Quyida qadimgi afsonadan namuna keltiramiz:

O'g'uzxon tug'ilgach, u boshqa bolalardan farqli ravishda juda tez ulg'ayadi. Uch kun ichida gapira boshlaydi va shunday deydi:

“Men yagona Tangriga sig'inaman, boshqa ilohlarga sig'inmayman.”

U voyaga yetgach, otasining hukmronligiga qarshi chiqadi, chunki otasi ko'p xudolikka ishonardi. O'g'uzxon o'ziga sodiq kishilarni to'plab, kurash boshlaydi va g'alaba qozonadi. Keyinchalik u katta qo'shin tuzib, Sharqdan G'arbga qadar yurish qiladi, ko'plab yerlarni egallaydi. Har bir zabt etilgan hududda tartib o'rnatadi va o'z urug'larini joylashtiradi.

U o'z o'g'illariga yerlarni bo'lib beradi va shunday deydi:

“Yurtni asrang, xalqni birlashtiring, Tangrini unutmang.”

“O'g'uzxon” afsonasi turkiy xalqlarning eng qadimiy va muhim epik yodgorliklaridan biri bo'lib, unda ideal hukmdor obrazi, davlat tuzish g'oyasi va ilohiy e'tiqod mujassamdir. Afsona markazida turgan O'g'uzxon obrazi oddiy inson emas, balki ilohiy kuch tomonidan qo'llab-quvvatlangan qahramon sifatida tasvirlanadi.

Avvalo, O'g'uzxonning tug'ilishi va tez ulg'ayishi — bu mifologik belgidir. Uch kun ichida gapira boshlashi uning oddiy odam emasligini, balki tanlangan shaxs ekanini ko'rsatadi. Bu hol qadimgi miflarda uchraydigan “ilohiy qahramon” modeliga xosdir. Afsonaning yana bir asosiy jihati — davlat tuzish va boshqaruv g'oyasi. O'g'uzxon turli yurtlarni zabt etib, u yerda tartib o'rnatadi va o'z o'g'illariga yerlarni bo'lib beradi. Bu esa qadimgi turkiy jamiyatda siyosiy tizim va ijtimoiy tuzilmaning shakllanganini ko'rsatadi. Qahramon nafaqat jangchi, balki dono hukmdor sifatida ham gavdalanadi.

Xulosa: Qadimgi mif va afsonalar insoniyat tafakkurining ilk badiiy shakllaridan biri bo'lib, ularda xalqning kelib chiqishi, tabiat hodisalari va hayotga bo'lgan qarashlari ramziy va obrazli tarzda ifodalangan. Ushbu asarlar orqali qadimgi jamiyatning e'tiqodi, qadriyatlari hamda qahramonlik haqidagi tasavvurlari namoyon bo'ladi.

Mif va afsonalar bugungi kunda ham o'z tarbiyaviy va madaniy ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, ular milliy merosni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. N.J. Jabborov. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. B. To'xliyev. Qadimgi turkiy adabiyot. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2008.
3. A. Qayumov. O'zbek folklori va mifologiyasi. Toshkent: Fan, 2005.
4. S. Mirzayev. Xalq og'zaki ijodi. Toshkent: O'zbekiston, 2012.
5. “O'zbek tili va adabiyoti” darsligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun. Toshkent, 2020.